



BOLALAR FOLKLORI VA ULARNING TALQINLARI.

Egamberdiyeva Diloromxon Olloberdi qizi

University of Business and Science

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi

2-kurs 24-04 guruh talabasi

oyatilloplaymarket@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining muhim janrlari bo'lgan maqol va topishmoqlarning bolalar tarbiyasidagi o'rni hamda ularning bolalar adabiyoti rivojidadagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kitobning foydalari, xususan, bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqol va topishmoqlar orqali bolalarning tafakkuri, dunyoqarashi hamda milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati shakllanishi ilmiy asosda yoritib berilgan. Tadqiqot jarayonida xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilib, ularning ta'lim jarayonida samarali qo'llanishi muhim pedagogik vosita ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Maqol, topishmoq, kitobning foydalari, xalq og'zaki ijodi, tarbiya, bolalar adabiyoti.

Abstract: This article discusses the role of proverbs and riddles, which are important genres of folk oral literature, in the upbringing of children and their significance in the development of children's literature. It also analyzes the benefits of books, in particular, their role in the formation of spiritual and moral qualities in children, the development of independent thinking and speech culture. The formation of children's thinking, worldview and attitude to national values through proverbs and riddles is scientifically explained. In the course of the research, the educational potential of folk oral literature was revealed, and it was substantiated that their effective use in the educational process is an important pedagogical tool.

Keywords: Proverbs, riddles, benefits of books, folk tales, education, children's literature.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль пословиц и загадок, важных жанров народной устной литературы, в воспитании детей и их значение в развитии детской литературы. Также анализируются преимущества книг, в частности, их роль в формировании духовно-нравственных качеств у детей, развитии самостоятельного мышления и речевой культуры. Научно объясняется формирование мышления, мировоззрения и отношения к национальным ценностям детей посредством пословиц и загадок. В ходе исследования выявлен образовательный потенциал народной устной литературы и обосновано, что её эффективное использование в образовательном процессе является важным педагогическим инструментом.

Ключевые слова: *Пословицы, загадки, польза книг, народные сказки, образование, детская литература.*

Kirish

Bolalar uchun yozilgan asarlar, hikoyalar, she'rlar va ertaklar - yuksak g'oyalarga boy bo'lishi bilan birga, ularning yoshiga va saviyasiga mos bo'lishi lozim. Kichkintoylarga atalgan kitoblar bolani o'ziga rom etishi, uning qalbiga yo'l topa olishi va kelajakdagi ulkan hamda porloq ishlarga ilhomlantirishi kerak. Eng muhimi, asarlarda ko'tarilgan mavzular bolalar uchun tushunarli, sodda va qiziqarli tilda yoritilishi zarur. Chunki faqat chinakam badiiy, hayotiy va samimiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsata oladi. Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, mazmunli va qiziqarli tarzda yozishni bilishi, buning uchun esa xalq tilini chuqur va puxta egallagan bo'lishi shart. Ravon va boy til bilan yozilgan asarlar yosh kitobxonning nutqini rivojlantiradi, so'z boyligini oshiradi hamda fikrlash doirasini kengaytiradi. Kitob bolalarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularning xarakterini tarbiyalaydi, ona diyorumizga, mehnatga, ilm-fanga bo'lgan muhabbatini yanada kuchaytiradi. Shu bois bolalar adabiyoti jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda adabiyot inson ongiga kuchli ta'sir ko'rsata oladigan qudratli vositalardan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida adabiyotning o'rni beqiyosdir. O'quvchilarning pedagogik va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha).
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha).
3. O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).

Quyida ushbu davrlarga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi: Bu davrda bolalar kitobxonligi asosan ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o'qish va yozishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar atrof-muhit, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlardan deyarli bexabar bo'ladilar. Shunga qaramay, ular bizni qurshab olgan olamni tezroq bilib olishga, uni o'rganishga kuchli qiziqish bildiradilar. Bu jarayonda oilada ota-onaning, maktabgacha ta'lim muassasalarida esa tarbiyachilarning o'rni nihoyatda muhimdir. Chunki ular bolalarning yoshiga mos kitoblarni o'qib beradilar, rasimli kitoblar orqali esa bolalarni atrofda olam bilan tanishtirishga yordam beradilar. Masalan, mevali daraxtlar, gullar, hayvonlar, ranglar va boshqa ko'plab mavzularga oid kitoblar bolalarning bilim doirasini kengaytiradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'qib beriladigan asarlarning hajmi qisqa, mazmuni esa sodda va tushunarli bo'lishi talab etiladi. Bu yoshdagi bolalar tinglaydigan asarlarning asosiy qismini ertaklar, qo'shiqlar, topishmoqlar, maqollar, tez aytishlar kabi xalq og'zaki ijodi namunalari tashkil etadi. Bunday asarlar bolalarning eshitish qobiliyatini, xotirasini va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat ega. Bolalar adabiyotida ijod qilgan shoirlar ko'p bo'lib, ulardan biri - Anvar Obidjondir. Shoirning " Suhbat" nomli she'rida

bolalar juda yaxshi ko'radigan g'ozlar haqida so'z yuritiladi. Ma'lumki, bolalar go'daklik chog'larindoq jonivorlar va qushlarga nisbatan kuchli qiziqish bildiradilar. Shu jihatdan qaralganda, "Suhbat" she'ri bolaning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. She'r voqealari juda oddiy va sodda tarzda bayon etilgan. Undagi o'zaro suhbat orqali g'ozlarning qorni ochligi, ularni boqish zarurligi ifodalanadi:

- G'ozlar, bir so'z deysizmi?
- G'a, g'a-g'a!
- Totli suli yeysizmi?
- Xa, xa-xa!
- Nega patni silaysiz?
- Mendan nima tilaysiz?
- Boq, boq, boq!


Bu kabi she'rlar kichkintoylarni mustaqil fikrlashga, savol-javob orqali mulohaza yuritishga o'rgatadi hamda ularning nutqiy faolligini oshiradi. Ayniqsa, jajji qizchalarning sevimli mashg'ulotlaridan biri qo'g'irchoq o'ynashdir. Yo'ldosh Sulaymonning "Qo'g'irchoq" nomli she'rida qo'g'irchoqlarni asrab-avaylash, oddiygina o'yinchoq orqali kattalarning mehnatini qadrlash va e'zozlash g'oyasi yoritilgan. Bu esa bolalarda mas'uliyat, mehr-oqibat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarning shakllantirishiga xizmat qiladi.

Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi: Bu yoshdagi bolalar kitobxonligi avvalgi bosqichdan ma'lum darajada farq qiladi. Ushbu farq bolalarning yoshi, bilim darajasi va umumiy saviyasi bilan bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar badiiy asarlar bilan asosan tarbiyachilar va ota-onalar yordamida tanishsalar, boshlan

g'ich sinf o'qituvchilari bu jarayonda tobora mustaqil bo'lib boradilar. Kitobni mustaqil o'qish ularda ishonch hissini kuchaytiradi, o'qishga bo'lgan qiziqish va zavq-shavqni oshiradi. Bu yoshdagi bolalar atrof-muhitda sodir bo'layotgan turli voqea-hodisalarga nihoyatda qiziqadilar. Ularning bizni qurshab olgan olam haqidagi ko'plab savollariga badiiy asarlar orqali mufassal va tushunarli javoblar beriladi. Ayniqsa, 11-12 yoshdagi bolalar sehrli-fantastik ertaklar, sarguzasht asarlar, hikoyalar, qissalar va dostonlarni sevib mutolaa qiladilar. Bugungi kunda bunday asarlar asosida yaratilgan sarguzasht va fantastik mavzudagi multfilmlar televizor orqali namoyish etilmoqda. Ularni katta-yu kichik birdek qiziqish bilan tomosha qiladi. Ushbu turdagi multfilmlar va badiiy asarlar bolalarda yaxshilik va yomonlikni ajrata bilish, adolat va jasorat tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yoshdagi bolalar uchun mo'ljallab yozilgan asarlar qatoriga Olloyorning "Fazogir chumoli" (ertak-qissa), Anvar Obidjonning "Daxshatli Meshpolvon" (ertak-qissa), Quddus Muhammadiyning "Erkinjon oyga chiqibdi" (doston) hamda Yusuf Shomansurning "Oydan kelgan bolalar" (doston) kabi asarlarni kiritish mumkin. Ushbu asarlar bolalarning tasavvur olamini kengaytirib, ularni jasoratli, izlanuvchan va bilimga chanqoq bo'lib ulg'ayishiga yordam beradi.

O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi: Bu bosqich avvalgi bosqichichlardan mazmun va yo'nalish jihatidan sezilarli darajada farq qiladi. Bu davr, asosan,





o'smirlik yoshiga to'g'ri kelib, bolalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyat shakllarining faol rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shu bois ushbu yosh davrida tanlanadigan badiiy asarlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ruhiy holati va intellektual saviyasiga mos bo'lishi lozim. Mazkur davrda kitobxonlik faqatgina qiziqish uyg'otish bilan cheklanmay, balki shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi muhim tarbiyaviy vositaga aylanadi. O'rta va katta yoshdagi bolalar hayot, jamiyat, insoniy munosabatlar, do'stlik, sadoqat, vatanparvarlik, adolat va burch kabi tushunchalarning mohiyatini anglay boshlaydilar. Shu sababli badiiy asarlar orqali ularga hayotiy muammolar, ijtimoiy voqealik va inson xarakterining murakkab jihatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yoshdagi o'quvchilar ko'proq real voqealarga asoslangan hikoya va qissalar, tarixiy asarlar, ijtimoiy-ma'naviy mazmunga ega romanlar, shuningdek, psixologik

yo'nalishdagi badiiy asarlarga qiziqish bildiradilar. Bunday asarlar o'smirlarning tafakkurini kengaytiradi, ularda mustaqil fikr yuritish va voqealarga tanqidiy yondashish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligida milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalari muhim o'rin tutadi. Ushbu asarlar orqali o'quvchilar xalqimizning boy tarixiy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar bilan tanishib, o'zlikni anglash tuyg'usini yanada chuqurlashtiradilar. Shu bilan birga, jahon adabiyoti namunalarini mutolaa qilish ularning dunyoqarashini kengaytirib, boshqa xalqlarning madaniyati va turmush tarzi haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Bu davrdagi bolalar kitobxonligini to'g'ri yo'lga qo'yish barkamol shaxs tarbiyasining muhim omillaridan biridir. Ushbu davrda badiiy adabiyot o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitadi, axloqiy qarashlarini mustahkamlaydi va hayotga ongli munosabatda bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bois pedagoglar va ota-onalar bu yoshdagi bolalar uchun tanlanadigan asarlarga alohida

e'tibor qaratishlari lozim.

Bolalar uchun kitoblar har doim foydali bo'lib kelgan, chunki kitob insonning eng yaqin va sodiq do'sti hisoblanadi. Kitob o'quvchini bilimli, tafakkuri keng, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantiradi. Hozirgi kunda esa elektron qurilmalarning jadal rivojlanishi natijasida ko'pchilik, ayniqsa bolalar, kitob mutolaasidan uzoqlashib bormoqda. Telefon, planshet va kompyuterlardan me'yoridan ortiq foydalanish inson salomatligi uchun zararli bo'lib, ayniqsa bolalarning ko'z nuriga salbiy ta'sir

ko'rsatadi. Ba'zi bolalar maktab darsliklarini yetarlicha o'rganmasdan, vaqtlarini bekorchi telefon o'yinlariga sarflamoqdalar. Bu holat nafaqat ularning bilim darajasiga, balki kelajakdagi hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, vatanimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekanini unutmasligimiz lozim. Xalqimizda "Yoshlikda olingan bilim - toshga o'yilgan naqshdir", degan hikmatli maqol bejiz aytilmagan. Chunki yoshlik chog'ida o'rganilgan bilim va ko'nikmalar inson xotirasida mustahkam saqlanib qoladi. Yosh ulg'aygan sari xotira faoliyati biroz sustlashadi, shu sababli bilimni o'zlashtirish jarayoni ham murakkablashadi. Shuning uchun bolalik davridayoq kitob o'qishga bo'lgan

muhabbatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bolalar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etish maqsadida turli tanlovlar, jumladan, "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovlari tashkil etilmoqda. Ushbu tanlovlarda g'olib bo'lgan ishtirokchilar qimmatbaho sovg'alar - avtomobillar, katta miqdorda pul mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Bunday rag'batlantirish vositalari bolalarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, ularni ilm-ma'rifatga undashda muhim rol o'ynamoqda.

Xalq og'zaki ijodida mehnat ahlining urf-odatlari, tabiat va jamiyat hodisalariga bo'lgan munosabati, baxtli hayot haqidagi ezgu tilak va orzulari, qayg'u va shodlik tuy

g'ulari, qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari, dushmanga nisbatan g'azab va nafrat, yengilmas iroda, shuningdek, haqiqat, adolat va baxt haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. Shu jihatdan qo'shiqlar xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri hisoblanadi. Qo'shiqlar, ayniqsa, bolalar tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, bolalar yoshlik chog'idan boshlab ona allalari sadolari ostida ulg'ayadi. Qo'shiqlar kuy va ohang bilan ijro etiladi, ayrim hollarda esa

o'yinlar bilan uyg'un holda aytiladi. Xalq og'zaki ijodida qo'shiq eng keng tarqalgan va ommalashgan janrlardan biri bo'lib, uning ichida alla yetakchi o'rinni egallaydi. Ona yangi tug'ilgan farzandiga mehr va muhabbat bilan alla aytadi. Garchi norasida bolaning allaning mazmunini anglash imkoniyati bo'lmasa-da, ona allasi orqali atrof-muhit, hayot haqidagi tasavvurlarini, farzandining kelajakdagi baxtli taqdiriga oid orzu-istaklarini ifodalaydi. Ona uchun bolaning tinchligi, osoyishtaligi va tabassumi eng katta quvonch hisoblanadi. Bolaning chehrasida paydo bo'lgan dastlabki tabassum ona qalbida bayramona kayfiyat uyg'otadi. Shuningdek, bolaning ovqat yeyishi, o'tirishi, yurishi va gapirishi kabi jarayonlar bosqichma-bosqich amalga oshib boradi. Xalq og'zaki ijodida marosim va mavsumiy qo'shiqlar ham muhim o'rin tutadi. Shunday qo'shiqlardan biri - keng tarqalgan " Chittigul" marosim qo'shig'idir:

Oq aholiga ko'k sholi,
Oq sholini oqlaylik,
Ko'k sholini ko'klaylik,
Yaxshi kunga saqlaylik,
Hayu, chittigul,
Hayu, chittigul

Ushbu qo'shiqda g'alla, xususan, sholi bilan bog'liq tasavvurlar aks etgan. Sholining turi va rangini tilga olish orqali hosilning mo'l-ko'lligi, mehnat samarasi va farovonlik g'oyasi ifodalanadi.

Bolalar folklorida aytishuv qo'shiqlari, xususan, "Oq terkami, ko'k terak" qo'shig'i ham muhim o'rin egallaydi. Ushbu aytishuv qo'shiqlari har davrda mashhurligini yo'qotmagan bo'lib, bugungi kunda ham bolalar o'yinlarida faol qo'llaniladi. Mazkur qo'shiq bolalarning jamoaviy harakati, nutqiy faolligi va ijtimoiy muloqotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

- Oq terkami, ko'k terak,

Bizdan sizga kim kerak?

- Erkin qo'zichoq kerak!

- Ola-bula kapalak,

Orqa sochim jamalak,

Oq terkami, ko'k terak,

Bizdan sizga kim kerak?

- Hayri qizaloq kerak!

Ajdodlarimiz hayotida tabiat hodisalari, xususan, shamol muhim ahamiyat kasb etgan. Shamol yordamida tegirmonlar harakatga keltirilgan, g'alla mahsulotlari tozalangan. Shu sababli shamol xalq tasavvurida yaxshilik va hayot manbai sifatida qaralgan. Ramazon oyiga bag'ishlangan qo'shiqlar ham xalq og'zaki ijodida alohida o'rin tutadi. Ushbu qo'shiqlarning asosini ezgu tilaklar bildirish, niyat va duolar tashkil etadi. Ramazon oyida, ayniqsa, iftorlik arafasida mahalla bolalari qo'shnilar xonadonlariga kirib ramazon qo'shiqlarini ijro etadilar. Qo'shnilar esa o'z navbatida bolalarni uyidagi mavjud ne'matlar bilan siylaydilar. Bu holat xalqimizda mehr-oqibat, saxovat va hamjihatlik an'alarining yorqin namunasidir.

Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Xalq tomonidan yaratilgan nihoyatda ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb ataladi. Maqollar xalqning bir necha avlodlar davomida to'plangan aql-zakovati, hayotiy tajribasi va donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmush hodisalariga aql ko'zi bilan qaray oladigan mehnatkash xalqning muayyan voqea-hodisalar, ishlar yoki shaxslar haqidagi xulosalari mujassamlashgan bo'ladi. Ular chuqur ma'noni ifodalashi va ixchamligi bilan ajralib turadi, shu sababli tez yodda qoladi. Maqollarda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o'zaro munosabatlari, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari o'ziga xos badiiy shaklda aks etgan. Shu jihatdan maqollar bolalarda fikrni qisqa, aniq va

lo'nda ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, maqollar ona tilining nozik badiiy xususiyatlarini anglash, so'z boyligini oshirish va nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bolalar yozuvchilari ham o'z ijodlarida maqollardan keng foydalanishga e'tibor qaratganlar. Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy, xilma-xil va rang-barang bo'lib, ularda, xususan, ona Vatanni sevish g'oyasi alohida o'rin tutadi. Masalan:

Bulbul chamanni sevar,

Odam Vatanni sevar.

Ona yurtning omon bo'lsa,

Rangi ro'yning somon bo'lmas.

Shuningdek, xalq maqollarida yaxshilik, halollik, to'g'rilik va rostgo'ylik ulug'lanib, yomonlik, yolg'onchilik va qalloblik keskin qoralanadi:

Yaxshi bilan yursang - yetasan murodga,



Yomon bilan yursang - qolasan uyatga.

Yaxshidan ot qolar,
Yomondan dod qolar.

Topishmoqlar - xalq ogʻzaki ijodining qadimiy va muhim janri. Topishmoqlar xalq ogʻzaki ijodining eng qadimiy, boy va ommabop janrlaridan biri hisoblanadi. Ular asrlar davomida xalqning kundalik hayoti, tabiat haqidagi tasavvurlari, dunyoqarashi va tafakkuri mahsuli sifatida shakllangan. Topishmoqlarda maʼlum bir narsa yoki hodisaning bir necha belgisi yashirin, ramziy va sirli tarzda ifodalanadi. Har bir topishmoqning zamirida topilishi lozim boʻlgan aniq maʼno yotadi va u odatda "kim?", yoki "nima?" soʻroqlari orqali aniqlanadi.

Topishmoqning asosiy vazifasi insonni mushohada yuritishga, fikrlashga va xulosa chiqarishga undashdan iboratdir. Odamlar berilgan belgilar va ishoralar asosida javobni topishga harakat qiladilar. Ayniqsa, bolalar topishmoqdagi jumboqli ifodalarni yechishga qiziqish bildiradilar. Bu esa ularning tafakkuri, tasavvuri va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Topishmoqlarning mavzui asosan tabiat hodisalari, kundalik hayotda uchraydigan buyumlar, oʻsimliklar, hayvonlar, mehnat qurollari hamda osmon jismlaridan iborat boʻladi. Odatda topilishi lozim

boʻlgan narsa uning bir yoki bir necha belgilari orqali oʻxshatish, qiyoslash va tasvirlash usuli yordamida ifodalanadi. Masalan: "Yer tagida oltin qoziq, u hammaga boʻlar oziq" topishmogʻida sabzi nazarda tutiladi. Bu yerda sabzining oltinrangligi, shaklan qoziqqa oʻxshashligi, tuproq ostida oʻsishi va isteʼmol uchun yaroqliligini badiiy tasvir vositalari orqali ifodalangan. Baʼzi topishmoqlar esa narsaning bajaradigan vazifasi, harakati, tuzilishi yoki qanday materialdan tayyorlanganiga asoslanib yaratiladi. Masalan: "Qoʻli yoʻq, oyogʻi yoʻq, uy poylar" topishmogʻi qulfni ifodalaydi. Bu topishmoqda qulfning jonsiz buyum ekanligi, harakat qilmasligi, biroq uy yoki eshikni qoʻriqlash vazifasini bajarishi ramziy tarzda berilgan. Topishmoqlar koʻpincha istiora va ramziy tasvirlarga asoslangan boʻladi. Masalan: "Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi" topishmogʻida quyosh, oy va yulduzlar nazarda tutiladi. Bu ifoda osmon jismlarining oʻzaro bogʻliqligi va ularning koʻpligini badiiy va obrazli tarzda aks ettiradi. Topishmoqlarning tarbiyaviy va taʼlimiy ahamiyati juda katta. Ular bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradi, aql-idrokini rivojlantiradi, kuzatuvchanlik va tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantiradi. Topishmoqni yechish jarayonida bola berilgan belgilarni solishtiradi, mantiqiy xulosa chiqaradi va oʻz bilimlarini sinab koʻradi. Shu sababli topishmoqlar maktabgacha taʼlim yoshida, maktab davrida, hattoki kattalar orasida ham katta qiziqish bilan qoʻllaniladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xalq ogʻzaki ijodining muhim va qadimiy janrlaridan biri boʻlgan topishmoqlar, maqollar xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va tafakkur mahsulini oʻzida mujassam etadi. Ularda narsa va hodisalar ramziy, obrazli hamda istioraviy yoʻsinda ifodalaniib, insonni mushohada yuritishga,

mantiqiy fikrlashga va xulosa chiqarishga undaydi. Tadqiqot jarayonida topishmoqlarning mazmun-mohiyati, mavzu doirasi va badiiy xususiyatlari tahlil qilindi. Ularning asosan tabiat hodisalari, kundalik hayot buyumlari, hayvonot va o‘simlik olami, shuningdek, osmon jismlariga oid ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbek bolalar adabiyoti. Mamasoli Jumaboyev Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
4. To‘xtasinov T. Bolalar folklori va uning janrlari. - Toshkent: Fan, 2005.
5. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
6. O‘zbek xalq topishmoqlari. To‘plam. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyat, 1984.